

DOI: 10.5281/zenodo.15860605

Link: <https://zenodo.org/records/15860605>

TO'QIMACHILIK SANOATI MAHSULOTLARI BOZORI HOLATI TAHLILI

Dotsent N.M.Muminova

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya - Ushbu tadqiqot to'qimachilik sanoati mahsulotlari bozorining joriy holati, global tendensiyalar va raqobatbardoshlik omillarini tahlili yoritilgan. Asosiy e'tibor bozordagi talab va taklif muvozanati hamda mahsulot sifatining raqobatdagi ahamiyatiga qaratilgan. Bozordagi talab va taklif, eksport salohiyati, shuningdek, raqobatbardosh omillar chuqur ko'rib chiqildi.

Mamlakat iqtisodiyoti oldiga eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi bandligini va daromadlarini oshirish muammolarini izchillik bilan hal qilish vazifalarini quyadi. Ushbu muammoni hal etishda to'qimachilik sanoatini rivojlantirish muhim bir tarkibiy bo'g'in ekanligini jahon iqtisodiyoti rivojlanishida ham ko'rish mumkin. Agar 2017 yili sohada ish bilan xodimlar soni 219 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2021 yili 378 ming kishiga etdi. "Keyingi besh yilning ichida sohaga 255 dan ortiq yangi loyihalar amalga oshirish natijasida 401 ming yangi ish o'rinlari yaratildi.[1]

O'zbekistondagi barcha to'qimachilik korxonalari zamonaviy ko'rinishda bo'lib, paxtani qayta ishlashdan boshlab, tayyor tikuvchilik mahsulotlarigacha bo'lgan yopiq ishlab chiqarish jarayonini o'zida mujassamlashtiradi. Buning natijasida, ushbu sohadan xorijga 2019 yili 1,6 mlrd. Dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksport qilinib uning umumiy eksport hajmidagi ulushi 10 foizdini tashkil etgan bo'lsa, 2020 yili 2,3 mlrd. dollarlik va 2022 yilda esa bu ko'rsatkich 3,5 mlrd. Dollarni tashkil etib, umumiy eksport hahmining 17 foizini tashkil etdi. Agar 2021 yilning shu davri bilan solishtiradigan bo'lsak 19,2 foizga o'sganini ko'ramiz. Raqobatchilik muxitining vujudga kelishi iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar mazmunini boyitib, xalqaro tovarlar va xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirishga ijtimoiy-iqtisodiy nuqtan nazaridan ularni xar tomonlama rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Keyingi yillarda O'zbekistan to'qimachilik sanoatida sezilarli ijodiy siljishlar sodir bo'ldi. Ishlab chiqarish hajmining ortishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot navlari ko'payishi va sifati yaxshilanishi hisobiga tayyor mahsulotlarni xorijga eksport qilish xajmi oshib borgan. Respublikada faoliyat yuritayotgan poyafzal mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarining salmog'i va imkoniyati yuqori bo'lib, ularning rivojlanishiga katta e'tibor berilmoqda. O'zbekistondagi barcha to'qimachilik korxonalari zamonaviy ko'rinishda bo'lib, to'qimachilikni qayta ishlashdan boshlab, tayyor kiyim tikishgacha bo'lgan tizimga asoslangan ishlab chiqarish jarayonini o'zida mujassamlashtirgan.

2022 yil yakunlariga ko‘ra, “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibiga kituvchi korxonlarda faoliyat yuritayotgan xodimlar soni 401 ming kishini tashkil etmoqda. 2023 yilning birinchi yanvar xolatiga O‘zbekistonda to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar soni 5852 tani tashkil etdi.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida mustaqillikdan keyingi yillarda ijodiy siljishlar sodir bo‘lgan. Ishlab chiqarish hajmining ortishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini ko‘payishi va sifati yaxshilanishi hisobiga tayyor mahsulotlarni eksporti yil sayin o‘tib bormoqda. “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi korxonlari eksporti tahlili shuni ko‘rsatadiki, agar 2018 yili to‘qimachilik mahsulotlari eksporti tarkibida ip kalava umumiy eksport hajmining 76 % tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilga kelib bu ko‘rsatkich 48 % tashkil etdi. Shu vaqt oralig‘ida ip gazlama hajmi 7,0% dan 18% ga, tikuvchilik – trikotaj mahsulotlari 7,8 % dan 27,7 % ga o‘sgan.

“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi hisobotlariga ko‘ra respublika korxonlari tomonidan 2018 yilda qiymati 1302,3 mln.dollarga teng eksport qilingan bo‘lsa, Savdo – sanoat palatasi portalida berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra 2023 yili yanvar – iyul holatiga ko‘ra eksport qilingan mahsulot hajmi 1,91 mlrd. Dollarni tashkil etib, bu umumiy eksport hajmi 17 foizini, mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 8,8 foizni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichlar 2021 yilning yanvar – iyul oylari bilan taqqoslaganda 19,2 foizga oshgan.

To‘qimachilik sanoati korxonalarini yanada modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlash orqali sohani eksport salohiyatini yanada oshirish bo‘yicha bir qator ijobiy ishlar bajarilmoqda. Buning natijasi 2026 yilga borib kalava ip eksporti hajmini 2021 yilga nisbatan 119,7% ga (862 tonnadan 102 tonnaga) gazlama mato hajmini 439% ga (716 mln.kv. m.dan 3148 mln.kv.m.ga) va tikuvchilik mahsulotlarini 173,9 % ga (797 mln.donadan 1385 mln.donaga) oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan prognoz ko‘rsatkichlariga erishish uchun “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining korxonalarining marketing faoliyatini rivojlantirish, mahsulotlarni eksport qilishga ko‘maklashish borasida bir qator vazifalarni amalga oshirish zarur bo‘ladi, jumladan:

- korxonalarini modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlash va sifat menejmenti tizimini joriy etishga har tomonlama ko‘maklashish;
- talabi yuqori bo‘lgan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish va turlarini kengaytirish, ichki bozorni mahalliy ishlab chiqarilgan import o‘rnini bosuvchi va raqobatbardosh mahsulotlar bilan to‘ldirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- to‘qimachilik mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarning marketing tadqiqotlarini tizimli ravishda olib borish, tarmoqlarning eksport salohiyatini kengaytirishni ko‘llab-quvvatlash, modellashtirish va brendlash bo‘yicha eng yangi innovatsion ishlanmalardan foydalangan holda xom ashyoni qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishning zamonaviy uslublarini, shuningdek ilg‘or axborot texnologiyalari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini keng joriy etish va x.

2024-yilda O‘zbekistonda to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va eksporti ko‘rsatkichlari tahlili

O‘zbekiston iqtisodiyoti tarkibida to‘qimachilik sanoati yetakchi o‘rinlardan birini egallab kelmoqda. Ushbu soha nafaqat mamlakat ichki bozori uchun muhim ahamiyatga ega, balki tashqi iqtisodiy aloqalar tizimida ham strategik o‘ringa ega bo‘lib, eksport salohiyatini shakllantirishda asosiy drayverlardan biri sanaladi. 2024-yil natijalari bu fikrni yana bir bor tasdiqladi.

Statistika agentligi tomonidan e‘lon qilingan dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024-yil davomida mamlakatda umumiy qiymati 89,5 trillion so‘m bo‘lgan to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Bu ko‘rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 11,1 foiz ga oshgan bo‘lib, sanoatning barqaror rivojlanayotganini anglatadi. O‘shish dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘nggi yillarda olib borilgan sanoatlashtirish siyosati, to‘qimachilik korxonalarini texnik modernizatsiya qilish, ichki ishlab chiqaruvchilarni imtiyozlar bilan qo‘llab-quvvatlash va eksportga yo‘naltirilgan strategiyalar o‘z samarasini bera boshlagan.

2024-yilda ishlab chiqarilgan to‘qimachilik mahsulotlari hajmi mamlakatdagi umumiy sanoat ishlab chiqarishining 10,1 foizini tashkil etdi. Bu raqam to‘qimachilik sohasining sanoat ichidagi nisbiy salmog‘i yuqoriligidan dalolat beradi. Boshqacha aytganda, har o‘ninchi sanoat mahsuloti to‘qimachilik sanoatiga to‘g‘ri kelmoqda. Bunday ulush, ayniqsa, yengil sanoat tarmog‘ining ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, to‘qimachilik mahsulotlari mamlakatning eksport tarkibida ham salmoqli o‘rin egallaydi. Jumladan, 2024-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston umumiy qiymati 2,9 milliard AQSH dollari atrofida bo‘lgan to‘qimachilik mahsulotlarini xorijiy mamlakatlarga eksport qilgan. Bu hajm mamlakatning umumiy eksport ko‘rsatkichlarining 10,6 foizi ni tashkil etadi. Statistik ma‘lumotlar asosida xulosa qilinsa, har o‘ninchi eksport qilinayotgan mahsulot to‘qimachilik tarmog‘iga to‘g‘ri kelmoqda, bu esa sohaning tashqi savdo balansidagi strategik rolini ochib beradi.

Jadval 1.

2024-yilda O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati ishlab chiqarish va eksportining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Miqdori	Ulushi (%)
Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	89,5 trln so‘m	100
O‘shish sur‘ati (2023-yilga nisbatan)	—	+11,1
Umumiy sanoatdagi ulushi	—	10,1
Umumiy eksportdagi ulushi	—	10,6
Eksport hajmi (jami)	2,9 mlrd AQSH dollari	100
— shundan ip-kalava (pryaja)	1 237,3 mln dollar	42,7
— tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari	1 124,5 mln dollar	38,8
— trikotaj matolari	292,1 mln dollar	10,1
— to‘qima matolar	145,9 mln dollar	5,0

— noski va boshqa tayyor mahsulotlar	42,6 mln dollar	1,5
--------------------------------------	-----------------	-----

Tahlil qilinganda, eksport mahsulotlarining tarkibi quyidagicha ko‘rinishga ega:

- Ip-kalava (pryaja) – 1 237,3 mln AQSH dollari. Bu mahsulot turi eksport umumiy hajmining eng katta qismini tashkil etadi. Xom ashyoga nisbatan talab yuqoriligini ko‘rsatadi.

- Tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari – 1 124,5 mln AQSH dollari. Bu esa mahsulotga qayta ishlov berish darajasi ortayotganini, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘tilayotganini anglatadi.

- Trikotaj matolari – 292,1 mln AQSH dollari. Bunday mahsulotlar ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligi bilan ajralib turadi.

- To‘qima matolar – 145,9 mln AQSH dollari. O‘zbekistonda to‘qimachilik materiallariga bo‘lgan innovatsion yondashuvlar natijasida bunday mahsulotlarga talab ortmoqda.

- Noski va paypoqlar – 42,6 mln AQSH dollari. Bu guruhda tayyor, yakuniy iste‘mol mahsulotlari eksporti oshib borayotgani kuzatiladi.

Yuqoridagi statistik ko‘rsatkichlar shuni tasdiqlaydiki, O‘zbekiston to‘qimachilik sohasi xom ashyodan tortib tayyor mahsulotgacha bo‘lgan to‘liq texnologik zanjirni qamrab olgan. Bu esa nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki mahsulot tannarxini pasaytirish, eksport geografiyasini kengaytirish, valyuta tushumini barqaror ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi, Rossiya, Turkiya, Xitoy va boshqa Osiyo davlatlariga yo‘naltirilgan eksport hajmlarining ko‘payishi, O‘zbekiston mahsulotlarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirmoqda.

Shuningdek, to‘qimachilik tarmog‘idagi o‘shish bandlikni ta‘minlash, ayollar va yoshlar uchun ish o‘rinlari yaratish kabi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni ham bajarib kelmoqda. Mavjud ma‘lumotlarga ko‘ra, to‘qimachilik sanoatida ish bilan band bo‘lganlarning salmoqli qismini ayollar tashkil etadi, bu esa hududlarda ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa

2024-yil yakunlari bo‘yicha to‘qimachilik sanoati mahsulotlari bozori holatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur tarmoq O‘zbekiston iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan barqaror rivojlanayotgan sohalardan biri sifatida shakllanmoqda. Ishlab chiqarish hajmining ortishi, eksport ko‘rsatkichlarining izchil o‘shib borayotgani hamda sanoat ichki strukturasi to‘qimachilik mahsulotlarining ulushining yuqoriligi tarmoqning muhim o‘rin egallayotganidan dalolat beradi.

Mahsulot eksportida xom ashyo (ip-kalava) bilan bir qatorda tayyor mahsulotlar — trikotaj, mato, tayyor kiyim-kechak va noski kabi assortimentning ham salmog‘i sezilarli darajada ortib borayotgani, qo‘shilgan qiymat darajasining oshayotganini ko‘rsatadi. Bu esa O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining nafaqat xomashyo yetkazib beruvchi, balki tayyor mahsulot eksport qiluvchi davlat sifatida xalqaro bozordagi mavqeini mustahkamlab borayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, to‘qimachilik sanoatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi omillar qatorida quyidagilarni alohida ta’kidlash joiz:

- sanoatni modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish;
- eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash;
- ish o‘rinlarini kengaytirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash;
- xalqaro standartlarga javob beruvchi sifat nazorat tizimini takomillashtirish.

Bozor holati tahlili asosida aytish mumkinki, to‘qimachilik mahsulotlariga bo‘lgan talab ichki va tashqi bozorlarda saqlanib qolmoqda. Kelgusida raqamli texnologiyalarni joriy etish, ekologik mahsulotlarga o‘tish, logistika tizimini takomillashtirish va brendingni rivojlantirish orqali ushbu tarmoqda eksport salohiyati yanada oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xaydarov “Tekstilnaya promishlennost Uzbekistana - noviy resursniy sentr tekstilya”: Uzbekistan Textile, 2022
2. **Jones, R. M. (2006).** *The Apparel Industry*. Blackwell Publishing. To‘qimachilik sanoati va kiyim-kechak ishlab chiqarish bozorining global ko‘rinishini tahlili.
3. **Kadolph, S. J., & Langford, A. (2009).** *Textiles*. Pearson Education.
4. **Gereffi, G., & Memedovic, O. (2003).** *The Global Apparel Value Chain: What Prospects for Upgrading by Developing Countries?*. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO).
5. **Barnes, L., & Lea-Greenwood, G. (2010).** *Fast Fashion in the Retail Store Environment: The Role of Technology*. Journal of Retailing and Consumer Services, 17(3), 233-239.
6. **O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Sanoat Vazirligi. (2022).** *To‘qimachilik sanoati rivojlanishi: ichki va tashqi bozorlar*.